

**MAKTABGACHA TA'LIM BOSQICHIDA MILLIY TARBIYANI YO'LGA
QO'YISHNING NAZARIYA VA AMALIYOTI**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lism yo'nalishi
101-guruh talabasi
Ergasheva Malika Shuhrat qizi
tel: 91 810 15 00*

Annontatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning mazmuni hamda uning ijtimoiy asoslari haqida va maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalash imkoniyatlari, afzalliklari, muammo va yechimlari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar tizimi , ma'naviy yaqinlik , madaniy-tarixiy meros, ma'naviy-axloqiy tarbiya, tarbiya usullari, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lism-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e'tibor qaratilib, bolalarni jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim, kasbhunarlarni egallashi, ma'nan-axloqan, jismonan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi, yosh avlod qalbida vatanga sadoqat, fidoyilik tuyg'ularini yuksaltirish borasida bir qator ishlar qilinmoqda.

Maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlarini ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlari nazarda tutgan holda tarbiyachilarning bolalar bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotida namoyon bo'ladi. Maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda uning mohiyatini tushunib yetish kerak. Qadriyatlar o'zining mohiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Jumladan, inson va uning hayoti eng oliv qadriyat hisoblanadi. Inson yo'q joyda biron narsaning qadr qimmati haqida so'zlash be'manilikdir.

Kishini qurshab turgan cheksiz ko'p narsa va hodisalar , shu jumladan, milliy ma'naviyat ichidan ham muayyan shaxs yoki ijtimoiy guruh yoki millat, yohud butun insoniyat uchun alohida ahamiyatga, qadrga ega bo'lganlari qadriyat deyiladi.

Milliy qadriyatlar deb muayyan xalqning rasm-rusumi, an'anasi, fazilatlari, axloq va odobi, yashash tarzi, bayramlari, shu xalqning aksariyat qismi tomonidan e'zozlanishga loyiq bo'lgan inshootlar, milliy liboslar, uy-ro'zg'or buyumlariga aytildi. Masalan, o'zbeklarning mehnatsevarligi, mehmono'stligi, xushxulqligi va muloyimligi, g'ayratli va itoatgo'yligi, turli toifadagi odamlar bilan o'zaro inoqlashib ketishligi, kechirimliligi , tinchliksevarligi o'zbek milliy qadriyatlarini bo'lib hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida yosh avlodlarimizga el-u yurtxalq, millat

va vatan manfaatlarini anglash, ularning shon-shuhratini yanada oshirish, ilm-u fanni va madaniyatini, ajdodlarimiz boy merosini, tarixini, dini va qadriyatlarini o'rganish, munosib baholash borasidagi pedagoglarimizning faoliyatlari katta ahamiyatga ega.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda , milliy-ma'naviy, etnik qadriyatlarni yoshlar ongiga samarali singdirishda maktabgacha ta'lim tashkilotida milliylik va milliy-ma'naviy qadriyatlar uyg'unligi mavzusida olimlar, yozuvchi va shoirlarning hayoti va ijod yo'liga oid bo'lgan vediofilmlarni qo'yib ko'rsatib borsak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni integral tarzda ma'naviy axloqiy tarbiyasini tashkil etish aniq maqsadga qaratilgan yaxlit pedagogik jarayon bo'lib, ushbu jarayonda quyidagi pedagogik vazifalar hal qilinadi: **1.** Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ma'naviy-axloqiy me'yorlar hamda axloqiy munosabatlar mohiyati va ularning ijtimoiy jamiyat hayotidagi ahamiyati to'g'risida ma'lumot beriladi.

2. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda ma'naviy-axloqiy tushunchalarini egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish , ma'naviy-axloqiy ongni qaror toptirish.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijobiy mazmundagi ma'naviy-axloqiy sifatlar (vatanparvarlik, mehnatsevarlik, go'zallikni his qilish, rostgo'ylik, ozodalik, o'zaro do'stlik, ahillik , shirinso'zlik, saxiylik, jasurlik va hakozolar) ni qaror toptirish.

4. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda ma'naviy-axloqiy mazmundagi xulq-atvor, harakter va irodani shakllantirish.

5. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish . Ushbu vazifalarni amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy muammolar, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni mashg'ulotlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimiga xizmat qiluvchi ijobiy omillar bilan birga undagi pedagogik muammolarni ham aniqlashga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha yoshdagi davrning o'ziga xos xususiyati shundaki, bu davrda bolalarda xarakter hislatlarining namunalari shakllanib axloqiy xarakterning asoslari vujudga keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi va vazifalari bolalarni aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish va maktabga tayyorlash, ularning ruhiyati, shaxsiy qobiliyati, intilishi va ehtiyojlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda rivojlanishni ta'minlash ularni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash , marifiy-madaniy tarbiyasida tabarruk dinimiz imkoniyatlari , buyuk ma'naviy-ma'rifiy merosimizdan foydalanish birinchi masala darajasiga olib chiqish esa maqsadga muvofiqdir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. G.I. Xasanova "Ta'lim jarayonida dasturlashtirilgan o'qitish texnologiya aidan foydalanihning afzalliliklari" Jizzax-2020.

2. "Maktabgacha pedagogika" Sh.Sodiqova Toshkent-2018.

3. Norquziyeva M. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarining kasbga munosabatini o'zgartirish kasbiy barqarorlikni ta'minlash garovi.